



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 47(043.3)(575.1)

MUALLIFNING MULKIY HUQUQLARINI JAMOAVIY BOSHQARUVCHI TASHKIOTLARNING HUQUQIY MAQOMI: O‘ZBEKISTON VA XORIY MISOLIDA

Qo‘chqorov Abbosjon Bahromjon o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: abbosbaxromovich@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5449-1461

Annotatsiya. Maqolada muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar huquqiy maqomining o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekiston va xorijiy davlatlar misolida ko‘rib chiqilgan. Mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatidagi ayrim muammolarga, mualliflik huquqini himoya qilishning xalqaro standartlariga va milliy qonunchilikning qiyosiy huquqiy tahliliga, shuningdek, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlarining fikrlariga e‘tibor qaratilgan. O‘zbekistondagi muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning maqsad va vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, mavzu doirasida huquq egalari, jamoaviy boshqaruv tashkilotlari tomonidan berilgan vakolatlar asosida o‘z nomidan asarlar (mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari)dan foydalanadigan shaxslar bilan shartnomalar tuzishi; mualliflik huquqi egalariga to‘lovlarni yig‘ish, tarqatish va to‘lash masalalari ham atroflicha o‘rganilgan. Mazkur institutni rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: mualliflik huquqi, mulkiy huquqlar, jamoaviy boshqarish, jamoaviy boshqaruvchi tashkilot, jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi, notijorat tashkilot.

ПРАВОВОЙ СТАТУС ОРГАНИЗАЦИЙ КОЛЛЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ АВТОРСКИМ ПРАВОМ СОБСТВЕННОСТИ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И ЗА РУБЕЖОМ

Кучкоров Аббосжон Бахромжон угли,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В статье рассмотрены особенности правового положения организаций, осуществляющих коллективное управление авторскими имущественными правами на примере Узбекистана и зарубежных стран. Уделено внимание некоторым проблемам в деятельности организаций по управлению правами коллективной собственности, международным стандартам защиты авторских прав и сравнительно-правовому анализу национального законодательства, а также взглядам ученых Узбекистана и других стран. Анализируются цели и задачи организаций коллективного управления авторскими правами в Узбекистане. Также в рамках предмета правообладатели заключают договоры с лицами, использующими произведения (объекты авторского права и смежных прав) от своего имени на основании полномочий, предоставленных организациями коллективного управления. Были выдвинуты предложения и рекомендации, имеющие научное и практическое значение для развития данного института.

Ключевые слова: авторские права, права собственности, коллективное управление, организация коллективного управления, правовой статус организаций коллективного управления, некоммерческая организация.

LEGAL STATUS OF COLLECTIVE MANAGEMENT ORGANIZATIONS OF AUTHOR'S PROPERTY RIGHTS: ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND ABROAD

Kuchkorov Abbosjon Bakhromjon ugli,
Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *In the article the features of the legal status of collective management organizations of author's property rights were touched upon on the example of Uzbekistan and foreign countries. Attention is paid to some problems in the activities of collective management organizations of author's property rights, international standards for copyright protection and comparative legal analysis of national legislation, as well as the opinions of scientists from Uzbekistan and other different countries. The goals and objectives of the collective copyright management organizations in Uzbekistan were analyzed. Furthermore, within the framework of the subject, the way how right holders enter into agreements with persons using works (objects of copyright and related rights) on their own behalf on the basis of powers granted by collective management organizations, as well as collection, distribution and payment of royalties to right holders was studied in detail. Suggestions and recommendations were put forward on scientific and practical importance of national copyright law.*

Keywords: *copyright, property rights, collective management, collective management organization, legal status of collective management organizations, non-for profit organization.*

Kirish

Intellektual mulk munosabatlari zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, bugungi kunda nomoddiy qadriyatlarning ahamiyati kundankunga ortib bormoqda. Intellektual mulk bozorining mustahkamlanishi va rivojlanishi, qolaversa, muallifning mulkiy huquqlarini individual himoya qilish va boshqarishning qiyinlashuvi mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga ehtiyoj tug'dirdi va ularning paydo bo'lishiga olib keldi. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) va YUNESKO bu institutning ahamiyatini va zaruratini bir necha bor ta'kidlab o'tgan.

Shuningdek, intellektual mulk, shu jumladan, mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash hamda uning himoyasini kuchaytirish mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti hamda investitsion jozibadorligini oshirishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda dunyo miqyosida mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash va uning himoyasini kuchaytirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mualliflarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, mualliflik asarlaridan ruxsatsiz foydalanishga chek qo'yish, mualliflik haqini adolatli to'lanishi va mualliflik huquqiga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish kabi masalalar bilan bog'liq. Qolaversa, mualliflik asarlaridan ruxsatsiz foydalanish va mualliflarga mualliflik haqini adolatli to'lanmayotganlik holatlarining ko'pligi muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish institutini rivojlantirish zaruratining kuchayib borayotganligidan ham dalolat beradi.

Ta'kidlab o'tish joizki, mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishda 2013-yildan beri BIMT shaffoflik, hisobdorlik va samarali boshqaruv tamoyillarini qo'llab-quvvatlab keladi. Ayni paytda u ushbu tamoyillarga asoslangan tashabbuslar hamda mamlakatlarga huquqlarni jamoaviy boshqarish ekotizimini yaratishda yordam berish ustida ishlamoqda. Shu sababdan, BIMTning tashabbusi bilan 1976-yilda Tunisda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Namunaviy qonunda birinchi marta mualliflar huquqlarini jamoaviy boshqarish yo'llari huquqiy va nazariy jihatdan belgilab berilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar huquqiy maqomi qanday, qonunchiligimizni xalqaro tajriba asosida to'ldirishga zarurat bormi kabi savollarga javob berishga harakat qilindi. Mazkur savollarga

javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqildi va bu borada bir nechta taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy va formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Olimlarning mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish haqidagi fikrlariga qaraydigan bo'lsak, olimlar orasida bu borada turlicha qarashlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, O. Oqyulov bunday huquqlarni boshqarishni o'ziga xos tamoyillarga asoslangan tashkiliy tizimning bir bo'g'ini deb hisoblasa [1], I. Nasriyev mualliflik huquqi subyektlari huquqlarini boshqarish bilan shug'ullanish o'ziga xos institut [2], degan fikrni bildirgan. Shuningdek, ko'pchilik olimlar esa mualliflar huquqlarini himoya qilish va ularga tegishli mualliflik haqlari yig'ish hamda taqsimlash masalalari bilan ijodiy uyushmalar shug'ullansa bo'ladi, deb hisoblashsa, V.L. Chertkov, V.I. Chernisheva va boshqalar ijodiy uyushmalar vakolati faqat uyushma a'zolariga taalluqli bo'lgani holda uyushma a'zosi bo'lsagina mualliflarning huquqlari himoya qilinishiga putur yetadi [3], deb ta'kidlaydilar.

Qonunchilik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, ayrim davlatlarning qonunchiligi mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakllariga, bir mamlakatda faoliyat yuritadigan bunday tashkilotlarning soniga, ularning faoliyat yuritishi asosidagi mulkchilik shakllariga turli talablar qo'yadi. Milliy huquqiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarning xususiyatlariga ko'ra, bunday tashkilotlar ham tijorat, ham notijorat tashkilotlar bo'lishi mumkin: xo'jalik sherikliklari va jamiyatlari ham, jamoat birlashmalari ham, hatto vakolatli davlat organlari ham bo'lishi mumkin [4]. Lekin hozirgi kunda eng keng tarqalgan shakl – bu mualliflarning o'zlari tomonidan yaratilgan, nazorat qilinadigan va ularga hisobot beradigan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. BIMT shofeligida olib borilgan maxsus tadqiqotida mualliflik huquqi sohasidagi nufuzli mutaxassis doktor M. Fichor bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda xususiy jamoaviy boshqaruv tashkilotlari ustunlik qilishini, rivojlanayotgan davlatlarda davlat tashkilotlarining mavjudligi esa ko'proq xarakterli ekanligini ta'kidlaydi [5].

Ko'pgina mamlakatlar o'zlarining milliy mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlarida jamoaviy tashkilotlarni tashkil etish uchun qabul qilishlari kerak bo'lgan huquqiy shaklni belgilaydilar. Misol uchun, Rossiya fuqarolik qonunchiligida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarishni amalga oshiruvchi tashkilotlar deganda, mualliflik huquqi egasi tomonidan berilgan vakolatlarga ega bo'lgan, jamoaviy asosda huquqlarni boshqarish yuklangan notijorat tashkilotlar tushuniladi [6]. Shuningdek, Gruziya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu davlatda ham tashkilot notijorat yuridik shaxs tashkiliy-huquqiy maqomiga ega bo'lgan holda tashkil etiladi [7].

Finlandiya qonunchiligiga ko'ra ham jamoaviy boshqaruv tashkiloti – uning a'zolariga tegishli bo'lgan yoki ular tomonidan nazorat qilinadigan yuridik shaxs yoki yagona yoxud asosiy maqsadi tegishli ruxsatnoma bo'yicha mualliflik huquqini yoki mualliflik huquqi bilan bog'liq huquqlarni huquq egalari jamoaviy manfaati uchun boshqarish bo'lgan notijorat tashkilot hisoblanadi [8].

Daniya qonunchiligida ham qonun yoki topshiriq bilan, litsenziya yoki boshqa shartnoma asosida mualliflik huquqi yoki unga tegishli huquqlarni bir nechta huquq egalari nomidan mualliflik huquqi, ushbu huquq egalari jamoaviy manfaati uchun, uning yagona yoki asosiy maqsadi sifatida boshqarish vakolatiga ega bo'lgan har qanday tashkilot tushuniladi va u quyidagi mezonlardan biriga yoki ikkalasiga javob berishi lozim:

- a) uning a'zolari tomonidan egalik yoki nazorat qilinadi;
- b) notijorat asosda tashkil etiladi [9].

Milliy qonunchiligimizga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 56-moddasida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar notijorat tashkilotlari hisoblanishi va ular o'z ustavlari asosida faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yilgan. Bunda nodavlat notijorat tashkiloti yuridik shaxs hisoblanib, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad yoki foyda olishni o'z

faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bunday tashkilotlar huquqiy maqomining o'ziga xos jihatlaridan biri bu notijorat tashkilot sifatida tashkil etilishi hisoblanadi. T.M. Turebekovning fikri bilan aytganda, nodavlat tashkilotlarning erkin va fuqarolarning xohish-istagi bilan tuzilishi uning demokratik institut ekanligini ko'rsatadi [10].

Hozirda mamlakatimizda bir nechta bu turdagi tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. 2010-yilda tuzilgan O'zbekiston huquq egalari palatasi mualliflarning, ijrochilarning, fonogramma tayyorlovchilarning va boshqa huquq egalari mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish va himoya qilish bilan shug'ullanib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda bu sohaga e'tiborning ancha kuchayganligini 2019-yildan hozirgi paytgacha yana 4 ta bu turdagi tashkilotlar tuzilganligidan ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2019-yilning o'zida 3 ta tashkilot: O'zbekiston mualliflik va turdosh huquq egalari jamoat birlashmasi, Mualliflarning mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati nodavlat notijorat tashkilot sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan [11].

Shuningdek, 2020-yili qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6000-son Farmoniga asosan mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi yana bir nodavlat notijorat tashkiloti – "San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish" Palatasi tashkil etilgan.

O'zbekiston mualliflik va turdosh huquq egalari jamoat birlashmasi tashkilot a'zolari bo'lgan fan, adabiyot va madaniyat asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari hamda boshqa mualliflik va turdosh huquqlar sohiblarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish hamda himoya qilish kabi maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'ygan. Mualliflarning mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotining maqsad va vazifalari fan, adabiyot va madaniyat asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari va boshqa mualliflik va turdosh huquqlar sohiblarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish ularning O'zbekiston Respublikasi hududidagi mualliflik va turdosh huquqlarini amalga oshirish, ta'minlash hamda ularni jamoaviy boshqarishga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati hamtashkilot a'zolari bo'lgan fan, adabiyot va madaniyat asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari va boshqa mualliflik va turdosh huquqlar sohiblarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish hamda himoya qilish va boshqalarni amalga oshirishi tashkilotning ustavida qayd etilgan.

"San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish" Palatasining ustaviga ko'ra uning asosiy maqsadi mualliflar, san'atkorlar va ijrochilar (huquq egalari) hamda ularning vorislarining fan, adabiyot, san'at va madaniyat sohasidagi mulkiy huquqlarini himoya qilish, ularning huquq va manfaatlarini respublikada va undan tashqarida amalga oshirilishini ta'minlash, o'z mulkiy huquqlarini yakka tartibda amalga oshirishga qodir bo'lmagan huquq egalari (vorislarining) mulkiy huquqlarini davlat tomonidan boshqarilishiga ko'maklashish va boshqalardan iborat.

Yuqoridagilarga e'tibor beradigan bo'lsak, bu jamoaviy tashkilotlarning nomi ham maqsad va vazifalari ham deyarli bir xil. Qonunchiligimizda, huquq egalari turli huquqlari va turli toifalari bo'yicha alohida tashkilotlarni yoki bir toifadagi huquq egalari manfaatlarini ko'zlab turli huquqlarni boshqaruvchi tashkilotlarni yoxud turli toifadagi huquq egalari manfaatlarini ko'zlab, huquqlarning bir turini boshqaruvchi tashkilotlarni tuzishga yo'l qo'yiladi, lekin, fikrimizcha, bu borada ularning torroq doirada ixtisoslashuvi maqsadga muvofiq. Masalan, bir toifadagi huquq egalari manfaatlarini ko'zlab turli huquqlarni boshqaruvchi tashkilotlarni tuzish lozim. Shunda, fikrimizcha, huquqlarni boshqarish va himoya qilish osonroq hamda samaraliroq bo'lar edi.

Masalan, Finlandiyada mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni asarlardan foydalanishni nazorat qilish va huquq egalari nomidan ish yuritish orqali boshqaradigan yettita jamoaviy boshqaruv tashkiloti mavjud va bular quyidagilarga ixtisoslashgan:

APFI – audiovizual ishlab chiqaruvchilar uchun mualliflik huquqi jamiyati;

Filmex – aktyorlar uchun mualliflik huquqi jamiyati;
Gramex – ijrochilar va ovoz yozish prodysuserlari uchun mualliflik huquqi uyushmasi;
Kopiosto – mualliflar, ijrochi rassomlar va noshirlar uchun mualliflik huquqi jamiyati;
Kuvasto – tasviriy san’at sohasida ishlaydigan rassomlar uchun mualliflik huquqi jamiyati;
Teosto – bastakorlar, soʻz mualliflari, aranjirovkachilar va musiqa nashriyotchilari uchun mualliflik huquqi jamiyati;
Sanasto – mualliflar va tarjimonlar uchun mualliflik huquqi jamiyati [12].

Xulosalar

Umumiy qilib aytganda, jamoaviy boshqaruv uchun bitta umumiy tashkilot yoki turli huquqlar va turli toifadagi huquq egalari uchun alohida tashkilotlarning tashkil etilishi ma’lum bir mamlakatda mavjud bo’lgan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy sharoitlar va an’analarga bog’liq. Alohida tashkilotlarning afzalligi shundaki, ular orqali huquq egalarning ayrim toifalarining alohida manfaatlari bevosita va to’liqroq himoyalaniishi mumkin. Yagona umumiy tashkilotning afzalligi esa, u orqali yangi foydalanishning paydo bo’lishidan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish va huquq egalarning umumiy manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish ancha osonlashadi. Parallel tashkilotlar mavjud bo’lgan taqdirda, ular o’rtasida yaqinroq hamkorlik qilish zarurati tug’iladi.

Har bir mamlakatda, qoida tariqasida, bir xil toifadagi huquqlarni boshqarish uchun faqat bitta tashkilot mavjud. Biroq, bir tomondan, bir sohada ikki yoki undan ortiq tashkilotning mavjudligi huquqlarni jamoaviy boshqarishning barcha afzalliklarini kamaytirishi yoki hatto, yo’q qilishi ham mumkin. Boshqa tomondan, bitta tashkilotning mavjudligi ushbu tashkilotning monopol holatiga va murakkab huquqiy tartibga solinishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish uchun davlat yoki xususiy tashkilot yaxshiroq bo’lishi ham mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sharoit va an’analarga bog’liq. Qoida tariqasida, xususiy tashkilotlarni yaratish afzalroq hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda eng keng tarqalgan shakl mualliflarning o’zlari tomonidan tuziladigan, o’zlari tomonidan nazorat qilinadigan va ularga hisobot beradigan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. Bu nafaqat davlatning xususiy sohaga asossiz aralashuviga yo’l qo’ymaydi, balki huquq egalarga o’z huquqlarini boshqaruvchi tashkilot ishiga bevosita ta’sir o’tkazish imkonini beradi. Lekin ba’zi mamlakatlar sharoitida (masalan, mualliflik huquqi infratuzilmasini yaratish jarayonida bo’lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda) huquq egalarning huquqlarini himoya qilish uchun davlat tashkilotlarini tashkil etish ma’qulroq bo’lishi mumkin. Bunday davlat tashkilotlari yaratilgan taqdirda esa, tegishli tashkiliy shakllar va kafolatlar zarur bo’lib, ularga ko’ra huquq egalarning o’zlari nafaqat nazorat qilish shartlarini belgilashlari, balki o’z huquqlarini boshqarish bo’yicha bunday nazoratni amalga oshirishlari mumkin.

Shu bilan birga, bu turdagi tashkilotlarning jamiyatdagi, xususan, mualliflik huquqidagi o’rni va ahamiyatini anglagan holda, bizning fikrimizcha, mualliflar va huquq egalarning huquqlarini jamoaviy boshqarishni takomillashtirish uchun quyidagilar zarur:

– jamoaviy boshqaruvchi tashkilot tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanmasligi va unga jamoaviy asosda boshqarish uchun berilgan asardan yoki turdosh huquq obyektidan tijoriy maqsadida foydalanmasligi;

– bu turdagi tashkilotlarni huquq egalari tomonidan mustaqil tuzilishini rag’batlantirish;

– bu turdagi tashkilotlar tomonidan huquq egalarning manfaatlari xorijda himoya qilinishini kuchaytirish;

– bu turdagi tashkilotlarning mualliflik huquqining turli sohalari, turlari va yo’nalishlari bo’yicha tuzilishini yo’lga qo’yish, ya’ni ularning ixtisoslashuvi;

– tashkilotlarning mualliflar va mualliflik huquqi egalarning huquqlarini muvaffaqiyatli himoya qilish natijalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish hamda ularning ochiqligini ta’minlash;

– mualliflik huquqi egalarning roziligi bilan yig’ilgan mablag’larning bir qismini jamg’arish yo’li bilan mualliflarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish. Bunda mablag’larning ma’lum bir foizi og’ir ahvolga tushib qolgan mualliflik huquqi egalarni moddiy qo’llab-quvvatlashga yo’naltiriladi.

REFERENCES

1. Окюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқий мақомининг назарий ва амалий муаммолари [Theoretical and practical problems of the legal status of intellectual property]. Т.: ТДЮИ, 2004. Б. 273-274.
2. Насриев И.И. Муаллифнинг шахсий ҳуқуқларини ҳимоялаш.[Protection of the author's personal rights]. Т.: Меҳнат, 2003. Б. 145-153.
3. Чертков В.Л., Чернишева В.И. Форма деятельности управлений охраны авторских прав. Творческие союзы в СССР [The form of activity of copyright protection departments. Creative unions in the USSR]. М.: Юридическая литература. 1970. С. 232.
4. Липчик Д. Авторское право и смежные права [Copyright and related rights]. Пер. с фр.; предисловие М.Федотова. М.: Ладомир, изд-во ЮНЕСКО, 2002. 788 с.
5. Ficsor, M. Collective Management of Copyright and Related Rights. Geneva: WIPO Pub. No. 855, 2002. Pp. 136-137.
6. Гражданский кодекс Российской Федерации [Civil Code of the Russian Federation]. Часть четвертая от 18 дек. 2006 г. № 230-ФЗ // Российская газета. - 2006. - 22 декабря (ред. от 01.07.2017 N 147-ФЗ).
7. Law of Georgia on copyright and related rights // <https://wipolex.wipo.int/en/text/548744>
8. Finish The Act on Collective Management of Copyright (Act No. 1494/2016 of December 29, 2016) // <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/16607>
9. Danish The Act on Collective Management of Copyright and Related Rights (Act No. 321 of April 5, 2016) / <https://wipolex.wipo.int/en/text/546840>
10. Туребеков Т.М. Общественные объединения как субъекты гражданского права [Public associations as subjects of civil law]. Автореф.дис.канд.юрид...наук. – Т.: ТГЮИ, 2000. – С.19.
11. URL: <https://www.minjust.uz/uz/interacti ve/reestr-nocommerce/>
12. URL: <https://okm.fi/en/copyright-societies>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.